# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AXAMIYATI

**Buriyeva Sevara Rustamovna**
Sharof Rashidov tumani
27-DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsini rivojlantirishda kompitensiyalarini shakllantirishning nazariy ahamiyati haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim –tarbiya, kompitensiya, fikrlash va nutq, xissiy bilish, mantiqiy bilish, xissiy tajriba, o‘quv jarayoni

**Аннотация:** В статье рассматривается теоретическое значение формирования компетенций в развитии личности ребенка в дошкольном образовании.

**Ключевые слова:** образование, компетенция, мышление и речь, эмоциональное познание, логическое познание, эмоциональный опыт, процесс обучения.

**Abstract:** This article discusses the theoretical significance of the formation of competencies in the development of the child’s personality in preschool education.

**Keywords:** education, competence, thinking and speech, emotional cognition, logical cognition, emotional experience, learning process

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda esa ularning sensor tarbiyasi muhim sanaladi. Bu tasavvurlarning xususiyati, ularning aniq ravonligi, to‘laligi voqelikni aks ettirishni ta’minlovchi sensor jarayonlarning rivojlanish darajasiga ya’ni, sezgi va idrokning rivojlanganligiga bog‘liqdir. Xissiy bilish maktabgacha yoshidagi bolalikda alohida ahamiyatga ega. Fikrlash va nutq etakchi o‘rin tutadigan mantiqiy bilish xissiy tajribadan kelib chiqadi. Sensor rivojlanish har qanday amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashning sharti hisoblanadi.

«Kompetensiya» atamasiga aniq ma’noli mazmun berishga ko‘pgina urinishlar mavjud. Bu boradagi muvaffaqiyatli va kamroq muvaffaqiyatli fikrlar tahlili bizni bahslarning davom etishi zaruratiga ishonch hosil qilishimizga va o‘z variantimizni taklif etishimizga undadi. Kompetensiyani muayyan sinf muhiti ob’ektlari va jarayonlarida ma’lum mahsulotni olish bilan sub’ektning xabardorligi, ko‘nikmalari, mazmunli yo‘nalganlik, moslashuv imkoniyatlari, faoliyat tajribasi va usullarining tizimli majmui sifatida ta’riflaymiz. Kompetensiya umumiy holatda jarayon sifati va uning natijalariga muayyan faoliyatli bosqichning mazmunli qismi doirasidagi ma’lum

me’yor, talablar majmui sifatida tushuniladi. Uzluksiz ta’lim g‘oyasi madaniy me’yor shakliga ega bo‘lgan va yangi ta’lim paradigmasining asosini tashkil etgan sharoitlarda, o‘quv jarayoni muayyan muassasalar, qat’iy muddatli chegaralar va aniq ajratilgan o‘quv davrlari doirasidan tashqariga chiqadi. Ochiq ta’lim modeli umumta’lim o‘quv muassasalariga kirib kelmoqda, uning birinchi belgisi mazkur ta’lim bosqichidagi qonuniy eksternat hisoblanadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub’ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. **Kompetensiya-** bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilarni tashkil qiladi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.
- **O‘yin kompetensiyasi** – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.
- **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.
- **Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglar tomonidan ta’lim faoliyatini tashkil etishda birinchi navbatda ta’limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo‘yiladi va bunda bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkillashtirish, zamonaviy maktabgacha ta’limning ilmiy konsepsiyasi hisoblanadi.

Asosiy kompetensiyalarni tanlashning nazariy asosi bo‘lib, pedagog olimlar va psixolog olimlarning inson tabiati, uning sub’ektli vazifasi va mohiyatli xususiyatlari masalalaridagi tadqiqotlari, shuningdek, ta’limda kompetentli yondashuvning konseptual qoidalari xizmat qildi. V.P.Bespalko shaxsning asosiy xususiyatlariga qisqa (annotatsiyali) ta’rifni va ularni shaxs sifatlari tushunchasi orqali talqinini keltiradi. Shaxsning ijtimoiy xususiyatlari strukturasiga insonning dunyoqarashi, axloqi, estetik va mehnat sifatlari kabi sifatlar kiradi. Aynan shaxsning ijtimoiy xususiyatlari bilan insonning insonlar orasidagi, tabiatdagi eng umumiy xulqi, uning u yerdagi sodir bo‘layotgan jarayonlarga munosabati va ulardagi ishtiroki darajasi belgilanadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1.SH.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T:, 2008y.

**2.** O.A.Maxmudova va boshqalar**.“**Tanlov o‘quv moduli**”** o‘quv uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi TDPU xuzuridagi XTXQTMOXM T.2018y.51 bet [1/30bet]

3. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic research in educational sciences, 2(1).